



UDK: 811.521

Ulbo'sin AMETOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: ametovau84@gmail.com

UrDU professori, f.f.d. D.G'oyipov taqrizi asosida

“QUSH TILI” DOSTONINING TASAVVUFIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitining atoqli vakillaridan biri Rizoii Payvandiyning “Qush tili” dostonining tasavvufiy asoslari, tariqat izdoshligi, diniy-falsafiy tomonlari ochib berildi. “Qush tili” Rizoii Payvandiyning yirik asari bo'lib, uning o'zbek tasavvuf adabiyotidagi o'rni, yaratilgan davri, tariqat izdoshligi masalalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, Xorazm adabiyoti, tasavvufiy doston, jazba, kubraviylik, tasavvufiy yo'llar, ishq.

THE SUFI BASIS OF THE EPISODE “THE LANGUAGE OF BIRDS”

Annotation

This article reveals the sufi foundations, religious and philosophical aspects of the epic “Qush Tili” by Rizai Payvandi, one of the prominent representatives of the Khorezm literary environment. “Qush Tili” is a major work by Rizai Payvandi, and its place in Uzbek mystical literature, the period of its creation, and the issues of religious and philosophical aspects are studied.

Key words: Sufism, Khorezm literature, mystical epic, attraction, Kubravianism, mystical paths, love.

СУФИЙСКАЯ ОСНОВА ПОЭМЫ «ЯЗЫК ПТИЦ»

Аннотация

В статье раскрываются суфийские основы и религиозно-философские аспекты эпоса «Язык Птиц» Ризаи Пайванди, одного из видных представителей хорезмийской литературной среды. «Язык Птиц» – масштабное произведение Ризаи Пайванди, исследуется его место в узбекской суфийской литературе, период создания, а также вопросы религиозно-философского характера.

Ключевые слова: Суфизм, хорезмийская литература, мистический эпос, влечение, кубравизм, суфийские пути, любовь.

Kirish. Har bir xalq, har bir adib o'z asarlarida buyuk salafining nomlarini xotirlab, ular qilgan ezgu, xayrli ishlardan bahs yuritadi hamda avlodlarga meros qolgan nodir manbalarga murojaat qiladi. Bu an'ana va ta'sir har bir sohada mavjud. Millatning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlarining tub zaminini belgilovchi omillardan sanalgan adabiyotda bu jarayon yorqinroq ko'rinadi va aniq iz qoldiradi. Chunki adabiyot zamon va makon chegaralarini buza oluvchi kuch bo'lib, u bani bashar histuyg'ulari, kechinmalarini ifoda etadi. Xorazm adabiy muhitining juda ko'plab vakillari ijodida kubraviylik, yassaviylik, naqshbandiylik ta'limoti g'oyalari bilan mushtarak adabiy holatlarni kuzatamiz. Bu, albatta, tabiiy adabiy hodisa. O'zini shu vatanning munosib farzandiman degan adib borki, shu zaminda yashab o'tgan salafarni o'ziga pir, ustoz deb biladi va juda ko'p hollarda o'z ijodi bilan ularga munosib izdosh bo'lishga harakat qiladi. Shayx Najmiddin Kubro asarlarining va kubraviylik ta'limoti g'oyalarining badiiy adabiyotga ta'sirini, nainki, shayxning o'zi yashagan bir davr adabiyotida, balki barcha davr adiblari asarlarida kuzatamiz.

Bu izdoshlik, ayniqsa, XVIII asrda, ya'ni xonliklar davrida yashab ijod qilgan Xorazm adabiy muhitining atoqli vakillaridan biri Rizoii Payvandiyning “Qush tili” dostonida yaqqol namoyon bo'ladi. “Qush tili” Rizoii Payvandiyning yirik asari bo'lib, u o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal badiiy dostonidir. Bu doston haqida

birinchi ilmiy izlanishlarni M. Imomnazarov boshlab bergan. Olim o'zbek tasavvuf adabiyotining vakillaridan biri bo'lgan Mavlono Xoja Qozi Payvandi Rizoii qalamiga mansub “Qush tili” asari qo'lyozmasi bilan Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar institutida tanishib chiqqanligini aytadi va o'zbek adabiyoti tarixi uchun bu ijodkor hamda uning asari noma'lum ekanligini alohida ta'kidlaydi. [M. Imomnazarov 1998, 78]. Maqolada M.Imomnazarov Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” va Rizoiiyning “Qush tili” dostonlarining qo'lyozmalarini qiyoslab, ularning syujet, kompozitsiya jihatidan farqli tomonlarini ko'rsatadi. “Har uch asar o'z mustaqil mazmuniy va hissiy yo'nalishiga ega, ularni hech bir shaklda bir-birining tarjimasi yoki taqlidi deb bo'lmasligini bayon etadi. Shuningdek, mo'tadil: ammo o'zi tanlagan yo'nalishni izchil tutadigan, ko'proq irfoniy tushunchalarning badiiy ommabop bayoniga urg'u beradigan adabiyot yaratildiki, bu ham sof tasavvuf she'riyatiga mansubdir”, – degan xulosaga keladi [M.Imomnazarov 1998, 77]. M. Imomnazarovdan keyin bu doston ustida jiddiy tadqiqotni olim Shafolat Hasanova olib brogan. Mavlono Xoji Qozi Payvandi Rizoiiyning “Qush tili” dostoni va uning qiyosiy-tekstologik tadqiqini amalga oshirgan. Olima 2009-yilda “Qush tili” dostonining ilk nashrini e'lon qiladi. Bu nashr bo'yicha dostonda hammasi bo'lib 156 sarlavha mavjud. Shundan 66 ta sarlavha asarning asosiy boblariga

tegishli, 33 ta sarlavha hikoyat nomlariga tegishli, 53 ta sarlavha esa Qur'on suralari va hadislar bilan nomlangan. Bu sarlavhalar arab tilida va ayni Qur'on va hadislardan iqtibos qilingan. Dostonning hajmi jami 4237 bayt, 8474 misradan iborat [Hasanova, 2016, 12]. Asar o'ziga xos syujet chizig'i va kompozitsion tuzulishiga ega. Doston tasavvufiy yo'nalishiga ko'ra ham oldingi qushnomalardan farqlanadi. Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlarida ham qushlar Simurg'ni topishda faqat yetti vodiyni bosib o'tishi kerak. "Qush tili" asari syujetidagi birinchi o'zgachalik qushlar bosib o'tadigan yo'llarda namoyon bo'ladi. Rizoiiy dostonida o'zigacha yaratilgan asarlardan farqli o'laroq qushlar to'g'ridan to'g'ri vodiylarni bosib o'tmaydi. Ular maqsadlariga yetishishda ikki bosqichdan o'tishlari kerak: Avvalo to'shalar, keyin iqlimlar. Dostonda vodiylar iqlim deb atalib, qushlar ularga qadam qo'yishdan oldin o'nta to'shani bosib o'tishlari lozim bo'ladi. Bular – tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqiblik va rizo to'shalaridir. "Bu to'shalarni bosib o'tgan har bir solik oldida Haq vasliga erishmoq uchun yana yetti iqlimni, ya'ni yetti botiniy hislatlarni egallashi vojib qilib qo'yiladi" [Rizoiiy 2009, 12]. Bu o'z-o'zidan doston tarkibiga o'nta masala, bu masalalarni ochiqlash uchun o'n fasl va har fasl uchun bir nechtdan hikoyatlar kiritilishiga asos bo'ladi. O'nta masala bo'yicha keltirilgan rang-barang hikoyatlar asarning g'oyaviy-falsafiy mazmuni, badiiy-poetik uslubida yangilanishlarni vujudga keltiradi. O'n tosha esa Rizoiiyning qaysi tariqatga aloqador ekanligini, ya'ni tasavvufiy yo'lini belgilab beradi.

Rizoiiy asarni yozishdan maqsadini dostonning "Tarixi kitob" qismida shunday izohlaydi:

Chun qush tilidin kinoyat erdi bu kitob,
Turkiy bila bo'ldi "Mantiq ut-tayr" xitob.
Tarixini jon bulbulidin so'rdum esa,
"Qush tili" bila navo chekib qildi javob.

E'tibor bersak, adib asarni "Mantiq ut-tayr"ning turkiy tarjimai deb izohlayapti. Olima Shafolat Hasanova dostonning Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlari bilan qiyosiy-tekstologik tadqiqini amalga oshirar ekan, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bergan.

Doston "Mantiq ut-tayr"ning to'la tarjimai ham, "Lison ut-tayr"ning aynan takrori ham emas. Biz ushbu ishimizda Rizoiiy Payvandiyni "Qush tili" dostonini boshqa bir tasavvufiy risola bilan qiyoslagan holda o'rganamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, biz qiyoslash uchun tanlagan asar ham Xorazm tasavvuf adabiyotining ilk namunalaridan biri, ya'ni Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" asaridir. "Usul al-ashara" kubraviylik tariqatining tamal asoslari bo'lgan o'n usul izohlanadigan risola. Bu asar ham o'z uslubida benazir bo'lib, Alloh tomon eltuvchi yo'llar, usullar va tasavvufiy tabaqotlar ajib bir shaklda aks ettirilgan. Har ikki asar ham tasavvufiy mazmunda. "Usul al-ashara" sof tasavvufiy risola hisoblansa, "Qush tili" tasavvufiy-adabiy, hamda falsafiy-badiiy doston hisoblanadi.

Quyida "Usul al-ashara" asari haqida va undagi tasavvuf ilmi haqida berilgan ma'lumotlarni va ularning "Qush tili" asarida qanday o'z aksini topganini ko'rib chiqamiz.

Rizoiiy Payvandiyni garchi dostonni Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarining turkiy tarjimai desa ham, Navoiyning "Lison ut-tayr" asariga tayanib yaratasa ham ulardan farqli o'laroq, "Qush tili" dostonida Alloh tomon safarga o'tlangan qushlar-soliklar yo'lini ikki

bosqichda, ya'ni to'shalar va iqlimlarga ajratadi. Asarda to'shalar o'nta: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo. Rizoiiy bu o'n to'shani Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" asaridagi o'n asosga tayanib keltiradi. Uning nazdida Simurg' visoliga yetishishni o'zlariga maqsad qilgan qushlar, ya'ni soliklar avval usul al-ashara – o'n usulni o'zlashtirishi kerak. "Bu yo'lni tamal qoidalarini esa o'n asosda jamlash mumkindir. Alloh sari sayru sayohat qiluvchilarning yo'li o'n asosga qurilgandir. Bu o'n asos yo'lni tamallari bo'lsa, boshqa asoslar bino ustiga qurilgan binoga o'xshaydi. Aslida har narsaning asosi va tamali mavjud. Agar u bo'lmasa, maqsadga yetib bo'lmaydi" [Tasavvufiy hayot, 2005, 32].

Najmiddin Kubro Allohga eltuvchi yo'llarning adadi maxluqotning nafaslari qadar behisobligini va ularni uch asosiy guruhga birlashtirish mumkinligini aytadi:

Tariqi axyor – xayrlilar yo'li.

Tariqi abror – ichki va tashqi taqvoga amal qiluvchilar yo'li.

Tariqi shutter – ishq, jazba, muhabbat sohiblarining yo'li. Alloh tomon sayru sayohat qiluvchilarning tariqi.

Najmiddin Kubro tariqi shutterni mumtoz yo'l deya e'tirof etadi. "Tariqi shutter: bu ishq, jazba va muhabbat sohiblarining yo'li. Va u ulug' mavloga sayru sayohat qiluvchilarning tariqidir" [Tasavvufiy hayot, 2005, 48]. "Usul al-ashara"da nazariy jihatdan asoslanayotgan ushbu tasavvufiy yo'l Rizoiiyning dostonida badiylashtiriladi. Asarning Muqaddimasi, ya'ni "Hudhuddan qushlar yo'lining otini va nihoyatini so'rg'onlari" qismida:

Kim na yo'ldur bu, muning oti nedur,

Avvali neyu nihoyati nedur?

Deya qushlar bergan savolga Hudhud shunday javob beradi:

Uylakim, solikka yo'q hasru hisob,

Yo'lg'a ham yo'qtur nihoyat hech bob...

Balki ul yo'l Ka'bai jon yonig'a,

Borur anfosi xaloyiq sonig'a [Rizoiiy 2009, 67]

Rizoiiy Allahga eltuvchi yo'llarning xaloyiqning nafaslari qadar ko'pligini yozadi. Najmiddin Kubroning "Usul al-ashara" asari esa mana bu jumla bilan boshlanadi: "Allohga eltuvchi yo'llarning adadi maxluqotning nafaslari qadar behisob" [Tasavvufiy hayot, 2005, 32].

Bu jumla nainki Najmiddin Kubroga tegishli, balki, ko'plab tasavvuf arboblarning eng mashhur gaplaridan biri, aslida. Bu yo'llar insonning hayotda qiladigan yaxshi amallariga ishora. Najmiddin Kubro ham Rizoiiy ham solik uchun eng yaxshi yo'l bu tasavvufiy usullar ekanligini uqtiradi. "Biz izohlamochi bo'lgan yo'l esa bu yo'llarning eng oydini va eng mukammalidir. Bu yo'l Haqqa yetkazguchi yo'llarning eng yaqinidir" [Tasavvufiy hayot, 2005, 32].

Najmiddin Kubro solikni qadam-baqadam o'n usul tomon olib boradi.

Rizoiiy Kubroning ayni jumllarini dostonida shunday badiylashtiradi:

Kim bu yo'l kim man qilibman tay oni,

Ortiku o'ksuk sirin aytay oni.

Aqrabi barcha tariq ul bu tariq,

Kim erur muvsal ila "alar rafiq" [Rizoiiy 2009, 67]

Shoir ham Hudhud tilidan Alloh tomon olib boruvchi eng yaqin yo'l sirlarini aytmoqchi va u ham Najmiddin Kubro kabi yolga o'tlangan qushlarni o'n to'sha tomon yetaklayapti. Adiblarning har ikkida ham maqsad bir. Ushbu ikki asar bir manzilga eltuvchi yo'l, bir ma'noni anglatuvchi so'z, haqiqatning ayni ko'rinishidek yozilgan.

“Tariq” va “tariqat” soʻzlari lugʻaviy jihatdan yoʻl maʼnosida va istilohiy jihatdan soʻfiyning qadam-baqadam oʻzini poklashi va Allohga yaqinlashish uchun tanlagan yoʻli hisoblanadi. Tasavvufda avvalo shariat bosqichini oʻtamay turib tariqatga kirib boʻlmagani kabi tariqatning biror yoʻlini qabul qilmay ham oʻz maqsadiga erishib boʻlmaydi. Tasavvufda suluk at-tariq, yaʼni yoʻlni oʻtash degan tushuncha mana shu sababdan paydo boʻlgan.

Najmiddin Kubro ham shu jihatdan “Tariqi shuttor bu- ishq, jazba va muhabbat sohiblarining yoʻli. Va u ulugʻ Mavloga sayru sayohat qiluvchilarning tariqidir” [Tasavvufiy hayot, 2005, 45] deydi. Rizoiy ham asar muqaddimasida ayni shu yoʻlni izohlar ekan, ishq va jazba holatlarini va ularning sohiblarini tariflaydi:

Jazbakim, oshiqdurur asli vusul,
Hech shak yoʻqkim, topar mundin husul...

Bu tariqa zumrayi ushshoq erur,

Lojaram, barcha tariqdin shoq erur. [Rizoiy 2009, 67]

Tasavvuf yoʻliga kirgan solikning azaliy inoyat tufayli ortiqcha saʼy-harakatsiz Haq taologa yetkazadigan ruhiy manzil va maqomlarni bosib oʻtishi, ruhda tajalliy nurlarining akslanishi jazba holatidir. Jazba Allohdan inoyat. Unga moyillik, muhabbat va ishq esa bandalardandir. Jazbaning sharti – Alloh bandalariga yuqtirgan isteʼdod, yaʼni oliy qobiliyat. “Jazba va oliy qobiliyatlari ila goʻyo nurdan yasalgan bir narvon bilan samoga yuksaladilar, ming odimni bir qadamdayoq qatʼ etadi” [Tasavvufiy hayot, 2005, 45]. Najmiddin Kubro ham

jazba bilan bir qatorda oliy qobiliyatni sanaydi, yaʼni soʻfiylik isteʼdodini nazarda tutadi. Bu istedod, jazba qancha kuchli boʻlsa, solik shuncha tez tariqat odoblarini oʻzlashtiradi, qalbi poklanadi, hol manzillarida sayr qila boshlaydi.

Najmiddin Kubro ham Rizoiy ham soliklarga endi oʻn usul asoslarini va mazmun mohiyatini anglata boradi. Bunda har ikkisi ham Qurʼon oyatlari va hadislariga tayanadi.

Xulosa va takliflar. Rizoiy dunyoqarashi chegaralari va tamallarini aniqlash oson emas. Uning diniy-ilohiy, tasavvufiy fikr-qarashlari islomiy tushunchalar, ayniqsa, Qurʼoni Karim taʼsirida shakllanganligi shubhasiz. Rizoiyning tasavvufiy dunyo bilan bogʻlanishi Najmiddin Kubro tariqiga, balki undan ham oldinroqqa uzayib borar. Lekin “Qush tili” dostonida tanlanilgan yoʻl Najmiddin Kubroning tasavvufdagi yoʻlini davom ettirgan eng sodiq izdoshdek tasavvur uygʻotadi. Uning: «Ul hidoyat avjigʻa najmi hudo, Borchu bu yoʻl qushlarigʻa muhtado», deyishi kubraviylik tariqatiga naqadar kuchli eʼtiqodi va ehtiromining samimiy ifodasi edi. Xullas, Rizoiy oʻzining ushbu dostonida kubraviylik tariqatining tajribalarini katta mahorat ila umumlashtirgan va oʻzidan keyingi avlodlarga bu tariqatning yoʻl va asoslarini koʻrsatgan adib edi. “Qush tili” dostoni – tasavvuf bilan aloqador doston. Bu dostonning tasavvufiy tomonlarini qiyosiy oʻrganish, oʻzigacha yaratilgan qushnomalar bilan oʻxshash va farqli tomonlarini koʻrsatib berish taqiqotchilar oldida turgan jiddiy vazifalardandir.

ADABIYOTLAR

1. Тасаввуфий ҳаёт. 2005. И.Ҳаққулов ва А.Бектош тарж. 261 Т.: Мовароуннахр.
2. Валихўжаев, Ботир. 1974. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. 166. Т.: Фан.
3. Имомназаров, Муҳаммаджон. 1998. Хожа Қози Пайвандий Ризойий. Адабиёт кўзгуси. 76-81. № 1. Тошкент.
4. Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризойий. 2009. Қуш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Ш.Ҳасанова. 369. Т.: Tezkor-Press Print.
5. Маллаев, Натан. 2021. Ўзбек адабиёти тарихи. 408. Т.: Kafolat print company.
6. Ҳасанова, Шафоат. 2016. “Тўтинома” ва “Қуш тили” туркумидаги асарларнинг киёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. Фил.ф.д...дисс. Т.:
7. Ҳасанова, Шафоат. 2006. Мавлоно Хожи Қози Пайвандий Ризойийнинг “Қуш тили” дostonи ва унинг киёсий-текстологик тадқиқи. 104. Т.: ЎзР ФА Давлат адабиёт музейи.